



DETERMINING CHILDREN'S TALENTS AND DEVELOPING CREATIVITY WITH THE MEANS OF FINE ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Burxonova Manzura Xurshid qizi¹

¹ 1st year master's degree from Samarkand State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4936705>

ARTICLE INFO

Received: 01st June 2021

Accepted: 05th June 2021

Online: 10th June 2021

KEY WORDS

Fine arts, creativity, pedagogical educator, specialist, authority, pedagogical skill, integrative, technical, innovation, decorative, application.

ABSTRACT

At present, the state pays great attention to the upbringing of children, preschool education. The role of educators in the formation of the child as a future adult is invaluable in the family, the environment, in his life. The child first tries to express his interests in different colors of nature, the environment in his world. At this time, the people who help and support him are family members and, of course, educators.

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY FAOLIYAT VOSITASI YORDAMIDA BOLALARNING QOBILİYATLARINI ANIQLASH VA IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Burxonova Manzura Xurshid qizi¹

¹ Samarqand Davlat universiteti 1-kurs magistranti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-iyun 2021

Ma'qullandi: 05-iyun 2021

Chop etildi: 10-iyun 2021

KALIT SO'ZLAR

Tasviriy san'at, ijodkorlik, pedagog tarbiyachi, mutaxassis, avtoritet, pedagogik mahorat, integrativ, texnika, innovatsiya, dekorativ, applikatsiya.

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda davlatimizda bola tarbiyasiga, maktabgacha ta'limga juda katta e'bor berilmoqda. Bolani kelajakda yetuk shaxs b'olib shakllanishida oila, atrof-muhit, uning hayotida bevosita o'z avtoritet ta'sir kuchiga ega pedagoglarning o'rni beqiyosdir. Pedagog tarbiyachi bolaning dastlabki qiziqishlar, qobilyatlarini to'g'ri yo'sinda yo'naltiradigan malakali mutaxassis b'olishi lozim. Bola dastlab o'z qiziqishlarini tabiat, atrof-muhitni o'z dunyosida turli xil ranglarda b'oyab, fikrini yetkazishga harakat qiladi. Shu davrda unga ko'mak, tirkak b'oladigan insonlar oila a'zolar va albatta pedagoglardir.

Bolalarga e'tiborning kuchayishi, ta'lim sohasini takomillashtirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016- yil 29-dekabrda

“2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda



bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tadbqiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini shakllantirish ishlari ko'rib chiqildi. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi. Maktabgacha ta'limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi bilan tanishtirish, ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirishdir. Maktabgacha ta'lim muassasasi bolani shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Chunki maktabdagi ta'lim yoshida bolalar rivojlanib, o'z-o'zini anglashni, shaxsiy fikrini bayon etishni, qiziqishlarini ko'rsata olishni o'rganadigan, shakllantiradigan davrdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustakil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash esa malakali tarbiyachi pedagoglarning oldiga turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Tarbiyachi pedagoglarning vazifalaridan yana biri zamonaviy tasviriy san'at orqali bolalardagi

qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir bunda tarbiyachining o'rnini beqiyodir. Tarbiyachi pedagog chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo'lishi, buning uchun muntazam ravishda o'z ustida ishlashi, o'zining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz ko'tarishi, jahon tajribasidan andaza olishi, yangilik yaratishdan qo'rqmasligi kerak. Chunki yosh avlod kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Hozirgi davr ilg'or texnika va yangi innovatsiya davri hisoblanadi. Bu davrda o'sib ulg'ayotgan murg'ak qalblarning yuragiga kirib borish, ularni biror mashg'ulotga qiziqtirib, uni shakllantirish pedagogdan kuchli pedagogik mahoratni talab etadi.

Tasviriy faoliyati bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasasi dasturi va maktabda tasviriy san'at dasturi bolalarda tevarak atrofga nisbatan bolalarda estetik munosabatni tarbiyalash, ijodiy qobiliyat va bolada o'z fikrlarini tasvirlashni shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu jarayonlarda bolalar jamoada ishlashga, o'z harakatini o'rtoqlarining harakatiga bo'ysundirishga o'rganadilar. Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida tasviriy faoliyati mashg'ulotlari bolalarda, o'quv faoliyatida zarur bo'lgan malaka ko'nikmalarni shakllantiradi.

Bu yo'nalishning samarasi estetik yo'nalishning barcha vositalarini (teatr, musiqa, badiiy adabiyot, rasm chizish, applikasiya va boshq.) kompleks tarzda qo'llanilgandagina aniq bo'ladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tiladigan "Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari bolalarga beriladigan estetik tarbiya masalalarini yechishda



katta ahamiyatga ega. Chunki tasviriy faoliyat o'z xususiyatiga ko'ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat mashg'ulotlarining barcha turlari bolalarda go'zallikni bilish uchun, borliqqa emotsional-estetik munosabatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi.

Tasviriy faoliyat integrativ mazmun kasb etuvchi eng katta bo'lim hisoblanadi va faoliyatning boshqa turlari bilan mantiqiy va didaktik bog'liqlikda amalga oshiriladi. Bu omil tasviriy faoliyat mashg'ulotlari mazmuni va metodikasini faoliyatning boshqa turlariga hamohang tarzda takomillashtirib borish lozimligini anglatadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarda bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, san'at

asarlari bilan rasmga qarab hikoya qilish; maktabda esa tasviriy san'atning turlari rang tasvir, grafik, haykaltaroshlik va dekorativ san'at asarlari bilan yanada chuqurroq tanishadilar. Maktabgacha ta'lim muassasasida keltirilgan mashg'ulotlarning hammasiga katta ahamiyat beriladi.

Xulosa

Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatlari, shakli, rangi, katta-kichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Takomillashtirilgan "Bolajon" tayanch dasturi. T.: 2016.
2. Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari. T.: 2017
3. "Bilimdon" dasturi. T.: 2014
4. Amirova. G.A., Sulaymonov A.P., Djurayeva B .R. Maktabgacha ta'lim muassasalarida applikasiya mashg'ulotlari. T., 2014.
5. D.T Sabirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish. (13.00.01.-Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo'yicha yozilgan dissertatsiyaning avtoreferati). T.2007